

Adabiy aloqalar yangi bosqichda

2018 yil 9 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida "Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "Adabiy aloqalar va adabiyot nazariyasi" bo'limi tomonidan tashkil qilindi. Unda Kanada, Turkiya, Afg'oniston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Ozarbayjondan professor olimlar ishtirok etdi.

